



МУҒАЛЛИМ ҲӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ

Илимий-методикалық журнал



№ 5/2 2024



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки



МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2024

5/2-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

5/2-сан 2024

октябрь

Шөлкемлестириүшилдер:

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлendirиү Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Захия НАРИМБЕТОВА
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Хұшбоқ НОРБҮТАЕВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Уролбай МИРСАНОВ
Сапардурды АБАЕВ	Сафо МАТЧОН
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Шукурилло МАРДОНОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Абдулхамид МИРЗАЕВ
Мавлюда АЧИЛОВА	Камаладин МАТЯКУБОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Алима МАТКАРИМОВА
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Дилшодхұјжа АЙТБАЕВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Интизар АБДИРИМОВА	Қалыбай ПРИМБЕТОВ
Тұлқин АЛЛАЁРОВ	Раъно ОРИПОВА
Мариғжон АХМЕДОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Умида БАҲАДИРОВА	Норим РАХМАНОВ
Фарҳад БАБАШЕВ	Мұқаддас РАХМАНОВА
Ботир БОЙМЕТОВ	Дурдана РАХМАТУЛЛАЕВА
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Шахло БОТИРОВА	Феруза САПАЕВА
Комил ГУЛЯМОВ	Мухаббат САЛАЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Қаҳхор ТУРСУНОВ
Аскар ДЖУМАШЕВ	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Дилдора ДАВРОНОВА	Нурзода ТОШЕВА
Мұхтар ЕРМЕКБАЕВ (Шымкент, Қазақстан)	Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Алишер ЖУМАНОВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Саодат ТОШТЕМИРОВА
Холбай ИБРАГИМОВ	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Шохида ИСТАМОВА	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Умида ИБРАГИМОВА	Амангелди КАМАЛОВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)	Ризамат ШОДИЕВ
Джавдод ПҮЛАТОВ	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шымкент, Қазақстан)	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Дүстназар ХИММАТАЛИЕВ
Пердебай НАЖИМОВ	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Аскарбай НИЯЗОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Сабит НУРЖАНОВ	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
	Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
	Гавхар ЭШЧАНОВА
	Қонысбай ЮСУПОВ



Abdurasulov J. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik faninining bugungi kundagi pedagogik va psixologik dolzarblii	191
Ozodqulov O.B. Ta’lim muassasalari rahbarlarining samarali boshqaruva faoliyatida sog‘lom va ijodiy muhitni rivojlantirish omillarining kognitiv tahlili	196
Kobilova Sh.X. Inklyuziv ta’limni uzluksizligi ta’minalash va uni pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlashning nazariy jihatlari	201
Turakulov B.N. Ekopsoxologik kreativ qobiliyatini rivojlantirishning psixologik omillari	206
Vafoyeva G.B. Pedagogik jamoada sog‘lom muhitni shakllantirish va rivojlantirishning afzalliklari	210
Burxanova M.B. Muomala odobi – axloqiy va muomala madaniyatning muhim elementi sifatida	214
Raxmanova D.U. Talabalarning intellektual faoliyatini optimallashtirishning psixologik determinantlari	220
Abduqodirova D.E. Talabalarda emotsiyal kreativlik sifatlarini rivojlantirish	224
Xurramov K.M. Personalni korporativ boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari	230
Kadirova X.A. Jadid adabiyoti namondayalarining ta’lim tarbiyaga oid asarlaridan samarali foydalanimi	235
Janbayeva M.S. Interfaol metodlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy mobilligini shakllantirish	241
Temirbekova A.O., Yusupbayeva L. Inklyuziv ta’lim sharoitiida ona tili o‘qitishning innovatsion pedagogik usullari	248
Rustamov B.X. Falsafa kategoriyalari asosida pedagoglarning prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasi	253
Qazoqova D.Q. Umumta’limda biologiyani vitagenlashtirilgan ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitishni takomillashtirish metodikasi	257
Abduvaliyev N.A. “Tarbiya” fanini o‘qitishda kundalik-amaliy topshiriqlarning pedagogik zarurati:tajriba va zamonaviy yondashuvlar	264
Usmonova D. O‘quvchilarda bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish	274
Abduvaliyev N.A. Kundalik-amaliy topshiriqlar va uning o‘quvchilar kognitiv mustaqilligini rivojlanishdagi ahamiyati	280
Turdiyeva Sh.A., Toshlanova M. Yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik jihatlari	290
Абдуллаев А.А. Халқ ўйинлари узлуксиз таълимда жараёнида	297
Abdullahayev E.Z. Bo‘lajak o‘qituvchilarini sun’iy intellekt vositasida o‘quvchilarini tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish faoliyatiga tayyorlash	302
Narimbaeva L.K., Musaeva G.M. Katta maktabgacha yoshdagи bolalarning muloqot xususiyatlari	309
Xamrayeva A.F. Talabalarda o’ziga ishonch tuyg’usini shakllantirishning psixologik determinantlari	316
Ўролбоева Д.С. Педагог тарбиячиларда компетентликни ривожлантириш	321
To’lanova M.M. Bo‘lajak pedagoglarda kasbiy deformarsiya psixodiagnostikasi va psixokorreksiysi masalasi	328
Sayfiyeva Y.O., Fayzullayev R.X. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini baholash	333
Бегимкулов X. Ш. Рақамлаштириш муҳитида педагогнинг ахборот компетентлиги мазмуни ва ривожлантириш муаммолари	338
Холмухamedов Т.М. Техникум талabalarinинг кўникмаларни ривожлантирища шахсга йўналтирилган таъlimni amalga oshiishi ning ahamiyati	344
Djumaniyazov I.I. Tarixni o‘qitish jarayonida talabalarda vatanparvarlik tuyg’usini rivojlantirish texnologiyasi	349



INKLYUZIV TA'LIMNI UZLUKSIZLIGI TA'MINLASH VA UNI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QO'LLAB-QUVVATLASHNING NAZARIY JIHATLARI

Kobilova Sh.X.

*ChDPU Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika
kafedrasi v.b.dotsenti (PhD)*

Tayanch so'zlar: uzluksiz ta'lism, iklyuziv ta'lism, ta'lism traektoriyasi, maxsus o'qitish, pedagogik-psixologik qo'llash, ilmiy-nazariy g'oya, inklyuziv jarayonni rivojlanishini konstruktiv tavsiflash.

Ключевые слова: непрерывное образование, инклюзивное образование, образовательная траектория, специальное образование, педагогико-психологическое применение, научно-теоретическая идея, конструктивное описание развития инклюзивного процесса.

Key words: continuous education, inclusive education, educational trajectory, special education, pedagogical-psychological application, scientific-theoretical idea, constructive description of the development of the inclusive process.

Резюме:

Mazkur maqolada muallif uzluksiz inklyuziv ta'limi tashkil etishning ilmiy-nazariy jihatlariga doir o'z ilmiy mulohazalarini ilgari surib, alohida ta'limga muhtoj ta'lim oluvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ijtimoiy dolzarb masala ekanligini yoritgan.

Резюме:

В данной статье автор излагает свои научные взгляды на научно-теоретические аспекты организации непрерывного инклюзивного образования, создания необходимых условий для психолого-педагогического сопровождения учащихся, нуждающихся в специальном образовании, уточняет данную проблему.

Summary:

In this article, the author puts forward his scientific opinions on the scientific and theoretical aspects of the organization of continuous inclusive education, creating the necessary conditions for the psychological and pedagogical support of students who need special education. clarified that the issue.

Bugungi kunda uzluksiz ta'limda, inklyuziv ta'lism jarayoni haqidagi ilmiy-nazariy g'oyalari xilma-xil bo'lib, inklyuziv ta'lism to'liq standartlar asosida joriy etish yuzasidan aniq va tayyor o'qitish modellari mavjud emas. Shuningdek,



ta’lim muassasalarida inklyuziv jarayonni rivojlanishini konstruktiv tavsiflash imkonini beruvchi mexanizmlar to‘liq shakllantirilmagan.

Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalar uchun o‘quv mashg‘ulotlarga tez moslashish elementlarini o‘zida shakllantirgan trening mashg‘ulotlar majmuasini tashkil etish, uni qo‘llash faoliyatini amalga oshirish yuzasidan ilg‘or pedagogik texnologiyalar dasturini ishlab chiqish zarur. Inklyuziv ta’lim jarayonida maxsus o‘quv sharoitlarini yaratish, ularni amaliyotga joriy etish, har qanaqangi ziddiyat va ijtimoiy muammolarni chetlab o‘tgan holda har bir imkoniyati cheklangan bolalarни, nogironlik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘qitish uchun o‘quv dastur va o‘quv-uslubiy rejalarini shakllantirish kerak.

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy dunyoda uzlusiz ta’lim hayotiy zaruratga aylanmoqda. Mazkur masala YUNESKO tomonidan ham dozlarb omil sifatida e’tirof etilib, ushbu g‘oya bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlarida innovatsiyalar yoki ta’lim islohotlarining asosiy yo‘nalishlarini belgilashi [4] hamda bolalar bog‘chasidan boshlab imkoniyatlari cheklangan shaxslarni oliv ta’lim hamda oliv ta’limdan keyingi ta’lim bosqichlarini o‘zida aks ettirishi belgilangan.

Shuningdek, BMTning nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani qabul qilinishi [2], imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan bolalarini uzlusiz ta’limga jalb etish, inklyuziv ta’lim siyosatini barcha davlatlar to‘liq o‘zlarida joriy etish va mavjud xalqaro huquqlarga asoslangan inson manfaatlarini ijtimoiy-siyosiy hamda pedagogik-psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlashning zarur shakllarini belgilab, ta’lim gumanizmini jamiyat hayotida to‘liq realizatsiya etish nazarda tutilgan.

Zamonaviy ta’limni rivojlantirishning asosiy strategiyasi va yo‘nalishlarini ishlab chiqishda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar tashkiloti tomonidan 2030 yilgacha qabul qilingan barqaror rivojlanish maqsadlaridan biri - "inklyuziv va adolatli sifatli ta’limni ta’minalash va hamma uchun umrbod teng ta’lim imkoniyatlarini targ‘ib qilish" ga erishish [7] konsepsiyasini jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylantirishni ustuvor ta’lim maqsadlaridan biriga aylantirish lozimligiga e’tibor qaratildi.

Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarorga muvofiq “2020 - 2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyası” ishlab chiqilib, uni amalga oshirish mexanizmlari va yo‘l xaritasi shakllantirilgan. Unda uzlusiz ta’limga mas’ul bo‘lgan vazirliklar, davlat va nodavlat tashkilolari o‘z vakolatlari doirasida ushbu konsepsiyanı amalga oshirishi belgilab qo‘yilgan [6].

O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar uchun jadal rivojlanayotgan va takomillashtirilayotgan umumiy ta’lim tizimi keyingi kasbiy ta’lim (OTM

va undan keyingi ta’lim bosqichlari) uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, bu an’anaviy ravishda ularni umrbod ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Shuningdek, imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan o‘quvchi va talabalarni istiqbolda kasbiy faoliyatni tanlash, keljakda ishga joylashish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirishda hamda jamiyatni barcha sohalarida to‘liq va adekvat ijtimoiy faolligini ta’minlaydi.

Uzluksiz ta’limda inklyuziv jarayonni rivojlantirish g‘oyasi va uni amalga oshirish, alohida ehtiyojli ta’lim oluvchilar uchun individual ta’lim traektoriyasini belgilash va arxitekturasini yaratish zamon talabi bo‘lib mazkur toifadagi ta’lim oluvchilarni qiziqishi, iqtidor va qobiliyatidan kelib chiqib ularni barvaqt bosqichma – bosqich kasb-hunarga yo‘naltirishni ham ustuvor masala etib belgilanishi maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan, uzluksiz ta’limda inklyuziv ta’limning asosiy vazifalaridan biri, imkoniyati cheklangan har bir ta’lim oluvchini individual tipologik xususiyati, o‘qish va kasbiy yo‘nalganlik darajasi hamda kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyati, mazkur jarayonni ta’minalashga xizmat qiluvchi obektiv omillarni o‘ziga xosligi, asosiy prinsiplari hamda yondashuv uslublari ilmiy jihatdan o‘rganilishi ham muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yondashuv, uzluksiz ta’limda inklyuziv jarayonni realizatsiya etish bugungi kun ta’limning maqsadi emas, balki imkoniyati cheklangan ta’lim oluvchilarni iqtidori va qobiliyati doirasida kasbga yo‘naltirish hamda mustaqil hayot kechirish imkoniyatini sifat darajaga olib chiqishni ustuvor masala etib belgilagan. Shuningdek, imkoniyati cheklangan ta’lim oluvchilarni boshqalarga bo‘lgan qaramlik darajasini minimallashtirish, o‘ziga va ertangi kunga bo‘lgan ishonchini oshirish informatsion jamiyatda ta’lim-tarbiyaning ustuvorlik traektoriyasi va istiqbolli arxitekturasini belgilashda ijtimoiyadolat mezonini asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Imkoniyati cheklangan ta’lim oluvchilarni ta’lim olish traektoriyasi va kasbiy yo‘nalganlik arxitekturasini shakllantirish uzluksiz inklyuziv ta’limda maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan ta’lim oluvchilarni xohish irodasini to‘liq namoyon etishlar uchun qonunlar bilan tartibga soluvchi muammolar borligidan dalolat beradi.

-Birinchidan, alohida ta’limga ehtiyojmand ta’lim oluvchilar uchun uzluksiz ta’limning barcha darajalarida tizimli inklyuziv jarayonni rivojlantirish;

- uzluksiz inklyuziv ta’limni rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda zamonaviy ta’limning sun’iy intellekt imkoniyatilarini ta’lim mazmuniga singdirish va eskicha ta’lim texnologiyalarni modernizatsiya qilish;



- uzlusiz inklyuziv ta'limni maxsus o'qitish mexanizmlarini rivojlantirish va kasbiy yo'nalganlikning intensiv yaxlit tizimga muvofiqlashgan dasturini yaratish.

Uzlusiz ta'limning turli darajalari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rib chiqish va inklyuzivlik bilan muvofiqlashuvi, ta'limning yaxlitligini saqlashga qaratilgan va yo'naltirilgan ijtimoiy institutni harakatlar traektoriyasini belgilovchi dastur hisoblanadi.

Mazkur dasturni qurish alohida ilmiy mulohazani, nazariy va uslubiy vositalarni ishlab chiqishni talab qiladi, bu bizga alohida ehtiyojli ta'lim oluvchining ta'lim traektoriyasini uzlusizligi uchun shart-sharoitlar va shartlarni o'rganishga imkon beradi.

Inklyuziv ta'limning uzlusizligi muammolarini hal qilishda xorijiy va mahalliy tajribaning yondashuvlari tahlili shuni ko'rsatdiki, ta'limning uzlusizligi tushunchasining mazmuni o'quv jarayonida, uni tashkil etishda "bo'shiqlar" yo'qligida, har bir bosqichdagi faoliyat natijasi keyingi davrning boshlanishini ta'minlaydi.

Uzliksiz inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik-psixologik omillarini o'rganishning ilmiy tahlili shuni ko'rsatdiki, bu jarayon ko'p funksiyali xususiyat bilan tavsiflanadi. Uzlusiz inklyuziv ta'limning pedagogik-psixologik jihatlari imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchilarning individual shaxsiy sifatlarini diagnostika qilish orqali ijtimoiy integratsiyani yuzaga chiqaradi. Shuningdek, ijtimoiy muhit bilan faol kommunikativ o'zaro ta'sirga yo'naltiradi hamda olingan bilim va ko'nikmalarni o'z faoliyatlarida qo'llash imkoniyatini oshiradi.

N.M.Nazarova nuqtai nazaricha inklyuziv ta'limda ijtimoiy-pedagogik va psixologik yondashuv, imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchilarning individual jihatni va emotsiyal hayoti tajribasini aniqlashga va yo'naltirishga xizmat qiladi [5].

A.V.Suvorov nuqtai nazaricha, uzlusiz inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchilarning ijtimoiy-madaniy dunyoqarashini shakllanishiga xizmat qilib, hayot davomida o'z-o'zini tarbiyalash xususiyatini ular shaxsida shakllantirib, individual madaniyat namunasini rivojlantiradi [9]. Mazkur masalada o'z ilmiy qarashiga ega bo'lган, A.Yu.Shemanov imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchilarni o'qitishda "maxsus madaniy ehtiyojlarini" hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Uning ilmiy mulohazasiga ko'ra, bunday ehtiyojlarni hisobga olish muayyan munosabatlar tizimlari va identifikatsiyalarni tashkil etuvchi elementlarning o'ziga xos xususiyatlarini nomoyon etib, imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchilar uchun mos keladigan madaniy muhitni tavsiflash imkoniyatini oshiradi [8].



Xulosa qilib aytganda, uzlusiz inklyuziv ta'limni madaniy omillar asosida tashkil etish, gumanistik yondashuv sifatida e'tirof etilib, imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchilarni etnopsixologik qadriyatlar negizida shakllantirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-pedagogik jarayon hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda uzlusiz inklyuziv ta'lim interaktiv yondashuv orqali amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etib, ekzistensializm, pragmatizm, postmodernizm va fenomenologiya kabi g'oyalari asosida uning nazariy va uslubiy asosini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Ta'kidlashlozimki, mazkuryondashuv uzlusizinklyuziv ta'lim imkoniyatlarini pedagogik va psixologik jihatlarini ochib berishda alohida ahamiyat kasb etadi. Uzlusiz inklyuziv ta'limni amalga oshirish hamda qo'llab-quvvatlash uchun tashkil etilgan psixologik xizmat, psixologik-pedagogik markazlar va psixologiktibbiy pedagogik komissiyalar faoliyati ta'limning uzlusizlik vazifasini to'laqonli amalga oshirish resurslari mavjudligini ta'minlab, zaruriy omillarni muvofiqligini istisno qilinmaydi. Aks holda, nogiron bolalarning maxsus va inklyuziv ta'lim sharoitida erishilgan ta'lim darajasini yo'qotish xavfi ortish ehtimolligi yuqori bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Kobilova Sh.X. Pedagogik innovatsion ta'lim klaster asosida xalq ta'limida inklyuziv muhitni yaratish yuzasidan ijtimoiy-pedagogik yondashuv / Mug'allim həm əzliksiz bilimlendiril. №6/3.2022.-B.52-57.
2. Konvensiya OON o pravax invalidov: prinyata rezolyusiey 61/106 Generalnoy Assamblei ot 13 dekabrya 2006 g.
3. Kobilova Sh.X. Inklyuziv ta'lim makonini barqarorlashtirish hamda uning pedagogik shart-sharoitlarini muvofiqlashtirishning muammo va yechimlari // Ta'lim, fan va innovatsiya. 6-son, 2022.-B. 118-119.
4. Lopatkina Ye.V. Neprerivnoe obrazovanie - fenomen XXI veka // Neprerivnoe obrazovanie - strategiya jizni sovremenennogo cheloveka: materiali II Vserossiyskoy nauchno-prakticheskoy konferensii (g. Vladimir, 26–27 marta 2014 g.) / Vladimirskiy gosudarstvenniy un-t imeni A.G. i N.G. Stoletovix; Pedagogicheskiy in-t. Vladimir: Izd-vo VIGU, 2014. S. 14-15.
5. Nazarova N.M. K probleme razrabotki teoretycheskix i metodologicheskix osnov obrazovatelnoy integratsii / N.M. Nazarova // Psixologicheskaya nauka i obrazovanie. – 2011. – № 3. – S. 5-11
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktabrdagi PQ-4860-sun qarorga muvofiq “2020 — 2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiysi” <https://lex.uz/docs/5044711>
7. Rezolyusiya «Preobrazovanie nashego mira: Povestka dnya v oblasti ustoychivogo razvitiya na period do 2030 goda»: prinyata Generalnoy Assambleey OON 25 sentabrya 2015 g.
8. Shatrova N.V., Sichev V.V. Bezopasnost obshchestva i lichnosti v povsednevnoy jizni i chrezvichaynix situatsiyax: uchebnoe posobie dlya studentov s ogranicennimi vozmojnostyami zdorovya po dissipline «Bezopasnost jiznedeyatelnosti» po spesialnosti «Lechebnoe delo». Ryazan:OTS i OP, 2018. 312s.
9. Suvorov, A. V. Inklyuzivnoe obrazovanie i lichnostnaya inklyuziya / A.V. Suvorov // Psixologicheskaya nauka i obrazovanie. – 2011. – № 3. – S. 27-31

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Каракалпақстан филиалы

**«МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИҮ»**

№ 5/2

Нөхис — 2024

Басып шығыўға жуўапкер:

A. Тилегенов, С. Нуржанов

Баспаға таярлаған:

A. Тилегенов

Компьютерде таярлаған:

П. Реймбаев, З. Ниязымбетова

Мәнзил: Нөхис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54

Тел.: +998 61 224-23-00, +998 61 224-01-34

e-mail: uzniipnkkf@mail.uz,

mugallim-pednaik@mail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

www.KRTEACH.UZ

Журналга келген мақалаларга жуўап қайтарылмайды, журналда жерияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендіриү» журналынан алынды, дең көрсетилийи шәрт. Журналга 5-6 бет көлеміндеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада көлтирилген маглыўматларга автор жуўапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 09.10.2024. Форматы 70x100^{1/8}

«Таймс» гарнитурасында оффсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 31. Нашр. т. Нұсқасы _____ Буйыртпа №